

Berdiyev Bektosh Oxnorovich*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD***DAVLAT SIYOSIY IMIDJINING SHAKLLANISHI**

Annotatsiya: Maqolada davlat siyosiy imidji tushunchasi tahlil qilinishi bilan bir qatorda, uni shakllantirishning asosiy texnologiyalari ham tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy dunyoda har qanday davlatning samarali imidj siyosati strategik siyosiy resurs hisoblanishi bilan bir qatorda, muvaffaqiyatli tashqi va ichki siyosat yuritishning zaruriy omili ekanligi, O'zbekiston o'zining imidjini yuksaltirish bilan bog'liq siyosati ham tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: davlatning siyosiy imidji, xalqaro imidj, o'zlik, tarixiy xotira, madaniyat, siyosiy imidjning shakllanish bosichlari, qadriyatlar, tizim tashkil qiluvchi qiyofa.

Аннотация: Статья посвящена вопросам понятия политического имиджа государства, а также анализированы основные технологии его формирования. Вместе с тем, исследованы, что эффективная имиджевая политика любого государства считается стратегическим ресурсом и необходимым фактором успешности проведения внешней и внутренней политики. А также рассмотрена политика Узбекистана по повышению международного имиджа.

Ключевые слова: политический имидж государства, международный имидж, самоидентификация, историческая память, этапы формирования политического имиджа, ценности, системаобразующий образ.

Abstract: The paper defines the political image of a state, and examines major methods of creating an image. It argues that an effective image police of a state is a crucial political instrument and an essential component of successful policy-making. The paper distinguishes and describes historical stages of developing the political image of the contemporary Uzbekistan, as well as analyses the special characteristics of the image of the Republic of Uzbekistan.

Key words: political image of a state, international image, self-identification, historical memory, stages of developing the political image of the Republic of Uzbekistan, value system, system corporate image.

Kirish (Introduction). Har qanday zamonaviy davlatning strategiyasi o'z ichiga davlat organlari va umuman, mamlakatning, hokimiyat organlarining imidj shakllantirish faoliyatini ham olmog'i lozim. Mamlakat imidgeologiyasi, personal imidgeologiyasi bilan qiyoslaganda, imidj yaratish ob'yektining o'ziga xosliklari bilan bog'liq o'zining ma'lum xususiyatlariga ega. Davlatning siyosiy imidji bu - davlatning o'z fuqarolari va xalqaro maydondagi qiyofasi va uning namoyon bo'lishidir. Shuningdek, davlatning imidji - davlat tuzilmalarining tizimli tashkil qilinishi va ularning o'zaro aloqlaridan, shuningdek, siyosiy faoliyatning mohiyatidan kelib chiqadigan tizimli-korporativ kompleksi sifatida ham qarash mumkin.

Metodlar (Methods). Maqolada asosan tizimli tahlil, bixevoiristik tahlil, qiyosiy va tarixiy tahlil metodlaridan foydalilanilgan.

Asosiy qism (Research). Davlat siyosiy imidjining umumiylar xarakteristikasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- siyosiy imidjning ijtimoiy ahamiyati;
- uning mazmuni;

- siyosiy imidjining boshqa institutlar bilan qiyoslagandagi o‘zgarishi sharoitida vujudga keladigan o‘ziga xos imkoniyatlari, huquq va vakolatlari;
- jamiyat, millat va qatlamlar bilan shakllangan munosabatlarning xarakteri.

Mamlakatning muvaffaqiyatli, ijobiy imidjining mezoni sifatida yaratilgan samarali qiyofani, ya’ni qanday qilib, imidjning xususiyati mamlakatdagi siyosiy ahvolga, ijtimoiy hayot faoliyatining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalariga, va albatta boshqa davlatlar bilan tashqi munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishini keltirish mumkin.

Imidjni barqaror yoki o‘zgarmas holat sifatida baholash mumkin emas. Zero, davlatning siyosiy imidjini shakllantirishda ijtimoiy-siyosiy sohada sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar bilan bog‘liq rivojlanuvchanlik yondashuvidan foydalanish lozim. Davrning yangi talablariga moslashish uchun har bir mamlakat doimiy tarzda takomillashuvi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy, texnologik, informasiyon va demografik jarayonlarni doim hisobga olmog‘i lozim. Shu bilan birga, mamlakat imidji barqaror qadriyatiy xususiyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Bundan tashqari, imidjning o‘zgarishi ushbu mamlakat mazmunini va xarakteristikasini o‘zgartirmaslik faktini hisobga olmoq lozim.

Mamlakatning xalqaro imidji aloqalardan, shuningdek, ularning doira va qoidalalar mavjudligini ta’minlovchi munosabatlardan iborat. Shuning uchun bu aloqalarning barbob bo‘lishi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Masala shundaki, kutilgan natijaga erishish uchun yaratilgan obrazga mamlakat ichidagi va tashqarisidagi jamoatchilikni ishontirishdir. Imidjning amaliyotda vujudga keladigan umumiy belgilarini jamlagan holda, mamlakat imidjiga nisbatan qo‘llaniladigan umumiy talablarni alohida ajratish mumkin. Ulardan kelib chiqadigan bo‘lsak, imidj quydagilardan tashkil topmog‘i lozim:

- sintetik, ya’ni ramzlar va belgilarni yordamida ma’lum bir taassurotlarni vujudga keltirishni rejalashtirish (geraldik rasmzlar);
- haqiqatga yaqin, ishonchli. Agarki, imidj odamlarning ishonchini qozona olmasa, u hech kimga kerak emas. Imidj aniq bir mamlakat bilan identifikatsiya qilinmog‘i joiz. Imidj tirik bo‘lmog‘i uchun, u sog‘lom mazmun talablariga javob bermog‘i lozim;
- yorqin va aniq. Imidj, qachonki, odamlarning hissiyotlariga ta’sir qilca, tezlikda qabul qilincha, aniq maqsadlarni ko‘zlasa, muayyan bir mamlakat uchun xos bo‘lgan xususiyatlarni ko‘rsata olsagina uning samaradorligi ortadi;
- hissiyot va aql, kutilgan va reallik o‘rtasida joylashgan qaysidir darajadagi noaniqlik. Imidj har doim kutilmagan ssenariylarga, kutilmagan voqeliklarga, siyosiy hayotdagi o‘zgarishlarga chidam bera oladigan, shuningdek, turli qatlamlar va shaxslarning xohishlari va orzulariga moslasha oladigan bo‘lmog‘i lozim.

Natijalar (Results). Davlat imidjini shakllantirish quydagi savollarga javob berish muhim: Imidj qanday maqsadlar asosiga quriladi? Ushbu imidjni yaratishning buyurtmachisi kim? Davlat imidjini kim va nima uchun shakllantiradi (tashqi va ichki maydon uchun)? Mamlakatning xalqaro maydonidagi ijobiy imidjining “dushmanlari”, “raqiblari” kim?

Tizimiyy-korporativ sub’yekt sifatidagi davlatning imidji davlatning tashkiliy tuzilmasiga, turli organlar o‘rtasidagi funksiyalarning taqsimotiga, davlat institutlarining ichki tuzilishi va dinamikasiga, hokimiyat tomonidan rasmiy ma’qullanadigan qadriyatlар va mafkura tizimini shakllantirish yo’llariga, huquqning ijtimoiy samaradorligiga, boshqaruv ma’muriyatining tarkibiga, siyosatdagi kichik guruhlarning roliga, ommaning siyosiy xulq-atvoriga va boshqa qator jihatlarga bog‘liq. Oxir-oqibat davlat imidji qaysi sub’yektning obrazi omma ongiga singdirilishiga hamda unda muvaffaqiyatli tarzda mafkuraviy, siyosiy va psixologik zamin topa va mustahkamlanishiga bog‘liq bo‘lib qolaveradi.

Muxokama (Discussion). Davlat imidjining salbiy jihatlarda namoyon bo‘lishi davlatdagi ijobjiy jarayonlarni to‘xtatib qo‘yishi va ularga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Salbiy siyosiy imidj (qonunchilikning mukammal emasligi, byurokratiya, korrupsiya, mahalliychilik nepotizm) mamlakat iqtisodiyotiga investisiyalar oqimini kamaytiradi va ushbu davlat bilan xalqaro hamjamiatning, shuningdek, boshqa davlatlarning hamkorlikka bo‘lgan ishonchini kamaytiradi. Bunday holatda davlat o‘z imidji bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun barcha resurslarini ishga solishi talab etiladi. Masalan, o‘zining geografik joylashuvi, tranzit imkoniyatlaridan foydalangan holda, dunyo kompaniyalari va davlatlariga logistik imkoniyatlar, osonlashtirilgan bojxona imtiyozlari va hujjatlarni oson rasmiylashtirish kabi ishlar ham davlatning imidji yuksalishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, tashqi sharoitlarning va ichki holatlarning o‘zgarishlariga zudlik bilan moslasha olish hamda bu jarayonlarda imidj siyosatini olib borish davlat tizimini dinamik barqarorligini ta’minlaydi hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish salohiyatini oshiradi.

Agar biror bir mamlakatning salbiy imidjini yaratish bo‘yicha omma ongiga axborot-psixologik ta’sir ro‘y beradigan bo‘lsa, bunday ta’sirlar davlatning o‘ta mohirona va oqilonha siyosati bilan hal qilinadi. Masalan, mamlakatning xalqaro maydonidagi obro‘sini to‘kishga qaratilgan kuchli axborot “bo‘roni”ga qarshi turish uchun ham davlat tomonidan jamiyatni mafkuraviy bosimlar va tahdidlarga nisbatan “emlash”i, uning mafkuraviy-ahloqiy asoslarini ishlab chiqishi hamda bu vazifalar uchun barcha zaruriy axboriy va texnologik imkoniyatlarni yaratishi zarur. Buning uchun esa ushbu axborot ta’sirlaridan qo‘rqitishga emas, aholiga tashqi siyosiy texnologiyalarning davlat va jamiyat uchun muammo to‘g‘dirishini professional asosda yetkazishga, bunday ta’sirlardan himoyalanish shakllari va uslublarini anglashga asoslangan targ‘ibot va ishontirishning samarali metodlari zarur.

Maqbul bo‘lmagan imidj texnologiyalarining qo‘llanilishini cheklash uchun nafaqat davlat, balki jamiyat tuzilmalarini ham bu jarayonlarga jalg qilmoq lozim. Jamiyatda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish, xalqning siyosiy saviyasini yuksaltirishning uslublari ishlab chiqilishi, uning ahloqiy me’yorlari yaratilishi lozim.

Davlat imidjini faol tarzda shakllantirayotgan davlat institutlari aksariyat hollarda, mavjud hokimiyat tartiblarini qahramon tarix sari ramziy yo‘naltirish orqali mustahkamlagan holda, sport, armiya, madaniyat va san’atning ramziy kapitalidan foydalanadilar. Har qanday davlatda imidjni shakllantirish vazifikasi aholini safarbar qilish, jamoatchilik ongidagi individual farqlar va istaklarni o‘chirishdan iborat.

Davlat imidjida tarixiy jihat o‘ta muhim. Chunki u quyidagi birinchi darajali savollarga javob topish uchun zarur:

- ushbu davlat siyosiy imidjini yaratishning tarixiy asoslari qanday;
- davlatchilik asoslarini qayerdan qidirish kerak va undan so‘ng siyosiy imidjni yaratish texnologiyasi uchun hal qiluvchi urg‘uni qayerga bera olish kerak?

Bundan tashqari, quyidagilar siyosiy imidjni tanlashga ta’sir ko‘rsatadigan omillar hisoblanadi: xalqning mentaliteti, uning ijtimoiy tajribasi, an’analari va siyosiy madaniyati. Eng murakkab vaziyatlardan yana biri – bu o‘tish davridagi siyosiy imidjni shakllantirish to‘g‘risidagi masaladir. Chunki, “totalitarizm kishanlari”dan xalos bo‘lgan davlatlar aholisi anchayin hissiyotga beriluvchan va sezuvchan bo‘ladi” degan fikrlar ham mavjud va ularni siyosiy imidjni shakllantirishning asosiy strategiyasini tanlashda hisobga olish zarur. Davlat siyosiy imidjini shakllantirish bosqichlarining tahlili, bizga nafaqat siyosiy imidjni shakllantirish strategiyasini belgilash va shakllantirishga, shuningdek, rejalashtirilayotgan imidjning samaradorligini ham bashorat qilishga imkon beradi.

O'zligini anglash va tarixiy xotira masalasi ham davlat tarixiga nisbatan munosabatni shakllantiradi, davlat o'zini sosiomadaniy munosabatlarning sub'yekti sifatida tanishiga imkon beradi, demak, davlatning siyosiy imidjini shakllantiradi. Ma'lumki, yurtimiz uzoq o'tmish va shonli tarixga ega ekanligi, ularni isbotlovchi osori-atiqalarining ko'pligi, bu esa mamlakatimizning tarixiy xotirasiga nisbatan ijobjiy qarashlarning ham shakllanishiga sabab bo'lishini aslo unutmaslik lozim.

Xulosa (Conclusions). Yuqoridagilardan xulosa qilib, aytish mumkinki, har qanday mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy imidjining yuksalishi avvalo, ushu mamlakatning barqaror taraqqiyotiga va doimiy o'sishiga bog'liq. Zero, davlatning siyosiy imidjini shakllantirishda ijtimoiy-siyosiy sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlar va ularning dinamik xususiyatlari muhim o'rinn tutadi. Insoniyatning yangi davrga, ayniqsa, texnologik jihatdan butunlay taraqqiyotga xos bo'lgan sifat bosqichiga erishishi, doimiy tarzda siyosiy institutlari faoliyatining takomillashuvi, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, geosiyosiy, texnologik, informasion va demografik jarayonlari har qanday davlat va jamiyat oldiga adekvat talablarni qo'yayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Shu nuqtai-nazardan ham mamlakat imidjiining barqaror qadriyatiy xususiyatlar asosida o'sishini ta'minlash – davlatning muhim funksional vazifasi bo'lmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Berdiev, B. (2022). Cooperation with international organizations as an important factor in raising the international image of the country. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 4(03), 51-54.
2. Berdiev, B. (2023). Image policy as an important factor in the improvement and progress of the country. *Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research*, 1(2), 6-9.
3. Бердиев, Б. (2024). Имидж Вооруженных Сил в контексте общественно-политических изменений. *Центральноазиатский журнал социальных наук и истории*, 5 (1), 201-205.
4. Saydaliyeva, N., & Nazirov, M. (2020). Youth policy as a priority area of development. *Sociosphere*, 3, 104-111.